



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



## „HURLIQO VA HAMRO“ DOSTONI QAHRAMONLARINING XARAKTER XUSUSIYATLARI

**Ozodova Nafosat Sherxon qizi**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: dots. H.Allambergenov*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17268304>

**Annotatsiya:** *Maqolada dostonidagi qahramonlarning xarakter xususiyatlari va ezgu, insoniy fazilatlar aks ettirilganligi, insonlarning hayotida muhim ahamiyatga egaligi, yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, qahramonlarning turli xil xarakterlari misolida ko‘rsatib berilganligi haqida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Hurliqo va Hamro, Xusrav podshoh, hamroning akalari, Hurizafaron, vazir, yaxshilik, yomomlik, mehr, sadoqat, xarakter, obraz.*

**Abstract:** *The article discusses the character traits and noble, human qualities of the heroes in the epic, their importance in people’s lives, the struggle between good and evil, and the examples of the different characters of the heroes.*

**Keywords:** *Hurlika and Hamra, King Khusraw, Hamra’s brothers, Hurizafaran, minister, goodness, evil, love, loyalty, character, image.*

O‘zbek folklori o‘zining qadimiy, boy tarixi, ezgulik, mehr-oqibat, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash, milliy qadriyatlar, insonparvarlik g‘oyalari aks etgan ijod namunalari bilan xalqimizning qalbida doimo o‘chmas iz qoldirib kelgan. Xususan, „Oshiqnoma“ turkumi dostonlariga kiruvchi „Hurliqo va Hamro“ dostoni ham o‘ziga xos jihatlari, qahramonlarining xarakter xususiyatlari orqali xalqimizning orzu-umidlari, ezgulikka bo‘lgan intilishlarini ifoda etadi. „Chindan ham, dostonlarda tarixni xalqona tushunish, uni jonlantirish mavjud. Ularda xalqimiz boshidan kechirgan ijtimoiy-siyosiy voqealarning, etnik birlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarning tarixiy mohiyati badiiy bayon etilgan“ [1:229].

Dostonlarda qahramonlar xakteri, ichki kechinmalari, har bir holati tarixiylik, badiiy bezaklar asosida jonlantiriladi. „Hurliqo va Hamro“ dostonining ham nafaqat Xorazm versiyasi, balki qoraqalpoq versiyasi ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Lekin ikkala versiyaning hajmi, qahramonlari soni, xarakterlari bir-biridan deyarli farqlanmaydi. Chunki asardagi har bir obrazning asar voqealariga mos ravishda xarakterlari ochib berilgan. Jumladan, Hurliqo, Hamro, Xusrav podshoh, Qosim vazir, Xusravning farzandlari, Xizr, hakimlar, chiltanlar va boshqa qahramonlar asar voqealari rivojining ketma-ketligi va o‘quvchiga tushunarli, ma’nosini chuqur anglashga yordam beradigan go‘zal tasvirlar asosida ochib berilgan.



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Asarning bosh qahramonlaridan biri **Xusrav podshoh** bo‘lib, u aqlli, dono va xalqparvar inson sifatida tasvirlanadi. Xusrav obrazida insoniy fazilatlarning yorqin ko‘rinishlari: adolatli bo‘lish, xalq dardiga befarq qolmaslik, boylik va umrning o‘tkinchi ekanini anglash kabi g‘oyalarga alohida urg‘u beriladi. Uning siymosida zimmasiga yuklangan mas‘uliyat – xalq hayotini yaxshilash, ularning ahvolidan xabardor bo‘lish va adolatni qaror toptirish kabi ulkan vazifalarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirib beriladi. Shu tariqa Xusrav timsolida shohlikning nafaqat qudrat, balki og‘ir mas‘uliyat ekani ham teran ifodasini topadi. Bundan tashqari, farzandlari uchun jonini berishga ham tayyor ota obrazini ham ko‘rsatib bergan. Quyida asardagi Xusrav podshoh nutqidan keltirilgan parchada ham qayg‘uga botgan ota timsoli tasvirlangan:

*„Yozik kunlar tushti maning boshima,  
Xudoga „Bir nazar sol“, deb yig‘larman.  
Agar maning faryodima yetmasang,  
„Bargan omonating ol“, deb yig‘larman“ [2:96].*

Asarda **Hamro obrazi** mardlik va jasorat timsoli sifatida gavdalanadi. U aqlli, insofli, ko‘ngli ochiq, atrofida qilargalarga yordam qo‘lini cho‘zishga doim tayyor inson sifatida tasvirlanadi. Hamroning xarakterida insoniylikning eng yuksak fazilatlari mujassam. Uning har bir qadamida fidoyilik, halollik va samimiyat ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham mazkur obrazda xalq orasidan chiqqan, el-yurt kelajagi uchun yashaydigan, ularning dardini o‘z dardi deb biladigan chin inson siymosi gavdalanadi. Shuning uchun ham u safari davomida yeyish uchun hech narsasi qolmagan, nochor aholiga yordam beradi. Boshiga ish tushgan paytda qilgan yaxshiligi o‘ziga yaxshilik bo‘lib qaytadi. Bundan anglashimiz mumkinki, dostonning ma‘naviy-ma‘rifiy maqsadlaidan biri uning samimiyligi, mard va jasur yigit ekanligini yoritish orqali tinglovchi – o‘quvchini ushbu insoniy fazilatlar egasi bo‘lishga da‘vat qilish bo‘lgan.

Asarda bosh qahramon Hamroning ko‘zi ko‘rmay qolganida yordam bergan vafodor yor sifatida **Hurliqo obrazi** alohida o‘rin tutadi. Alifdek qomatli, oy yuzli pari deya ta‘riflangan qahramon harakatidagi o‘zgalar haqida qayg‘urish, mushkulini oson qilishga yo‘naltirilgan faoliyat oddiy yordam emas, balki insoniylik, mehr-muhabbat va sadoqatning yorqin ko‘rinishidir. U Hamroning hayotini saqlab qolish orqali o‘zining jasorati va fidoyiligini namoyon etadi. Bu tasvirda nafaqat ayollikka xos nazokat, balki qahramonlarga xos matonat va qat‘iyatni ham ko‘rsatadi.

Voqealar rivojida akalar Hamroni chohga tashlab, otasiga uning vafot etgani xabarini berishgan chog‘larda ham Hurliqo yigitning ko‘zi ojiz bo‘lib qolishiga



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



qaramay, yordam berishga, oyoqqa turishiga harakat qiladi. U Hamroni og‘ir vaziyatga tushgan paytida ham tashlab ketmaydi. Shunday qilib, hayoli, vafodor yor sifatida gavdalangan Hurliqo obrazida go‘zallik va jasorat, sevgi va sadoqat uyg‘unlashib, inson qalbining yuksak badiiy ifodasini o‘zida namoyon etadi.

**Hamroning akalari** doston davomida unga ko‘p yomonliklar qilishadi. Ular orasida aka-ukalik mehri, hasad va sinovlar ham bor. Ammo kenja o‘g‘il ko‘pincha o‘zining haloligi, jasorati va mardligi bilan ajralib turadi. Hamroning akalari uni yo‘llariga to‘siq bo‘ladi, taxtga o‘tiradi deb ko‘zini o‘yib, chohga tashlab ketishadi. Bu kabi qabihlik, mehirsiz akalarning qo‘lidan keladi. Dostonning voqealari rivojida Hurizafaron obrazi ham o‘zining qabih ishlari, yolg‘onchiligi, o‘z singlisiga qilgan yomonliklari bilan salbiy xarakter egasi sifatida tasvirlangan. Dostonda har xil xarakterdagi qahramonlarining borligi, asarning voqealari mazmunli, ta‘sirchan bo‘lishiga xizmat qiladi. Yani turli fe‘l-atvor egalari va ularning to‘qnashuvlari, o‘zaro munosabatlar orqali kitobxonga asarning mazmumi, ma‘naviy xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishlariga sabab bo‘ladi. „Hurliqo va Hamro“ dostonining ikkala versiyasi qoraqalpoq va xorazm versiyalaridagi voqealar rivoji, qahramonlarning xarakter xususiyatlari, tarixiyli, xalqning intilish va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida qilingan jasoratlilik, asarning g‘oyasi va voqealar bir-biriga mos kelishi bularning barchasi bir xil bo‘lsada, ayrim tasvir va ifoda uslublarida ozgina o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, „Hurliqo va Hamro“ dostoni faqatgina qahramonlarning sarguzashtlaridan iborat emas, balki chuqur ijtimoiy va axloqiy g‘oyalarni ham o‘zida mujassam etgan. Dostonda ezgulik, mehr-oqibat, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash, milliy qadriyatlar va insonparvarlik, xalqparvarlik kabi mavzular qahramonlarning har xil xarakter va sifatleri timsolida yoritilgan. Doston ushbu qahramonlar orqali yaxshilikning ,albatta, g‘alaba qozonishi va insoniy fazilatlarining naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Insonlarning bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishga, doim yaxshilik qilishga, har bir insonni qadrlashga chorlaydi. Zero, har bir badiiy ijod mahsuli, insonlarni ma‘naviy jihatdan boy bo‘lishga, tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladi.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.
2. Ro‘zimboyev S., Eshchanova G., Ahmedov A. Oshiqnoma. I-kitob. – Urganch: Xorazm, 2006.
3. Ziyoz.uz.kutubxonasi.